

## **YOSH AVLODGA TA'LIM-TARBIYA BERISH JARAYONIDA XALQ PEDAGOGIKASINING O'RNI VA AHAMIYATI**

**Sattorova Mahliyo Burxanovna, makhliyosattorova24@gmail.com  
Jizzax davlat pedagogika instituti 2 kurs magistranti.**

**Annotatsiya:** Maqolada yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlari, O'zbek Xalq pedagogikasining to'g'risida hamda ta'lim-tarbiya jarayonida Xalq pedagogikasining o'rni to'g'risida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Xalq pedagogikasi, tarbiya, ta'lim, qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, ta'lim samaradorligi.

Jamiyatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonida xalqimiz yaratgan pedagogik qarashlar, g'oyalar, milliy odob-axloq an'analari, xalq ommasining turli davrlar mobaynida turmush faoliyati jarayonida to'plagan boy tajribalari hamda xalq og'zaki ijodining barcha yo'nalishlarini o'z ichiga qamrab olgan xalq pedagogikasining o'rni juda axamiyatlidir.

Shu o'rinda "Xalq pedagogikasi" tushunchasini chuqurroq tahlil qilsak.

**Xalq pedagogikasi** - tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui; muayyan jamiyatda yashash uchun har bir odam amal qilishi shart sanalgan va urfodat, udum, xulqodob, marosim, an'ana, turmush tarzi, badiiy ijod, uyin singari empirik vositalarda namoyon buladigan amaliy faoliyat hamdir. Xalq pedagogikasi fanda "etnopedagogika" deb ham yuritiladi.

Pedagogika fanida Xalq pedagogikasiga xos bir necha belgilar mavjud bo'lib, eng muhim belgilaridan biri bu - uning **qadimiyligidir**. Har qanday xalq muayyan etnos sifatida mayjud bulishi uchun o'ziga xos qiyofaga ega bo'lishi kerak. Xalqning ijtimoiy, ma'naviy, intellektual qiyofasi esa uning ped. vositasidagina shakllanadi. Xalq pedagogikasi muayyan xalqning o'zi bilan birga dunyoga kelgani uchun ham uning tarixi xalq tarixi bilan teng.

Xalq pedagogikasining ikkinchi belgisi uning to'liq **amaliy xususiyatga egaligidir**. Xalq ta'lim-tarbiya jarayoni va uning natijalariga pragmatik nazar bilan qaragani uchun Xalq pedagogikasi g'oyalar shaklida emas, balki urfodat, an'ana, amal, udum, xulqodoblar tarzida namoyon bo'ladi. Xalq pedagogikasi ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlar yig'indisi emas, balki amal qilinishi majburiy bo'lgan va bajarilishi hamma tomonidan nazorat qilinadigan amaliy xulqiy ko'nikmalar va shaxsiy ko'nikmalar majmuidir.

Xalq pedagogikasining uchinchi xususiyati uning muallifi noma'lum, **anonim pedagogika ekanligidir**. Xalq pedagogikasi talablarining yaratuvchisi ma'lum bo'lmaganligi uchun ham muqaddas sanalgan va so'zsiz bajarilgan. Etnopedagogikaga doyr biror talabning muallifi ma'lum bo'lsa, uning ta'siri pasayib ketadi. Chunki u, kim bo'lsada, qandaydir bir odamning istagi sifatida qabul etiladi. Anonimlik esa urfodat, udum, xulqodatlarga sirlilik, muqaddaslik tusini beradi.

Xalq pedagogikasining to‘rtinchi belgisi uning **sinkretik (qorishiq) xususiyatga** egaligidir. Xalq hayoti ko‘p qirrali ekani holda yaxlit bo‘lgani singari uning ped.si ham qorishiqdir. Xalqning turli yo‘nalishdagi pedagogik tadbirlari sinkretik tarzda birvarakaiiga olib borilgani uchun Xalq pedagogikasiga alohidalik emas, umumiylilik xosdir.

Xalq pedagogikasining beshinchi belgisi uning **keng yoyilganligidir**. Xalq pedagogikasiga oid amallar muayyan etnik birlikning hammasiga birday tatbiq qilinadi. Muayyan shaxslarning xohishirodasi qandayligidan qat’i nazar, xalqning har bir vakili uning tarbiya va yashash tarziga doyr talablariga rioya etishga majbur. Xalq pedagogikasi talablarini bajarishda tarbiyalanuvchining istaklari inobatga olinmaydi. Xalq pedagogikasining oltinchi xususiyati bu - muayyan etnik birlikning turmush tarzida namoyon bo‘lishidir.

Xalq pedagogikasi empirik tabiatga ega bo‘lib, jamiyat a’zolari hayotini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan va uning qoidalari muhokama uchun emas, balki turmush mobaynida amal qilish uchundir.


O‘zbek Xalq pedagogikasi uzoq tarixga ega va millatdagi eng konservativ, sekin o‘zgaradigan, ana shu xususiyati tufayli xalqning o‘ziga xos qiyofasi saqlanib qolishini ta’minlaydigan hodisa ekanligiga qaramay, o‘z taraqqiyoti davomida bir qator o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. O‘zbek Xalq pedagogikasining taraqqiyot tarixi islomgacha bo‘lgan davr xalq pedagogikasi, islom ta’siri davri xalq pedagogikasi, tashqi ta’sirlar davri xalq pedagogikasi, mustaqillik davri xalq pedagogikasi singari bosqichlardan iborat. O‘zbek Xalq pedagogikasining bu tarzda davrlashtirishda xalq ruhiyati, yashash va fikrlash tarzidagi tub sifat belgilarining o‘ziga xosligi hisobga olingan. Ko‘p ming yillik tarixga ega o‘zbek xalqi ilmiy va moddiy buyum tarzidagi dalillarga ko‘ra, islom dini qabul qilingungacha bo‘lgan vaqtida tamomila o‘ziga xos tarzda hayot kechirgan. Olam hodisalarini o‘zgacha yo‘sinda tushungan va izohlagan, hayotdan boshqacha ta’sirlangan va ta’sir ko‘rsatgan, tiriklik va o‘lim, u dunyo va bu dunyo, ezgulik va yovuzlik, go‘zallik va xunuklik, savob va gunoh, halol va harom singari tushunchalar o‘zgacha mazmun anglatgan. "Avesto" asari yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, shuningdek, Selengur, Xorazm, Bolaliktepa, Issiqliq ‘rg‘on, Chust, Rishton va Burchmulladan topilgan obidalar shundan dalolat beradi. Islom dinining qabul qilinishi o‘zbek xalqining turmush tarzini tamomila o‘zgartirib yubordi, uni olamning musulmonlar deb atalmish ko‘p sonli qavmi bilan yaqinlashtirdi, xalqning turmush tarzi, madaniyati, ma’naviyati, ruhiyati, iqtisodi va ijtimoiy turmushiga favqulodda katta ta’sir ko‘rsatdi. Ayni vaqtida, xalq o‘zining azaliy milliy qiyofasini ham saqlab qoldi. Chunki u qadimdan puxta shakllangan va qat’iy amal qilinadigan udumlar, odatlar, an’analalar tizimiga ega edi. Xalq islomni qabul qilgandan keyin uning yashash, fikrlash, ta’sirlanish tarzida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar Xalq pedagogikasida aks etdi. Endi xalq halol va harom, gunoh va savob, taqdir, qismat, u dunyo va bu dunyo, hayot, o‘lim hamda qayta tirilish borasida tamomila yangi qadriyatlarni o‘zlashtirdi, ularni hayot tarziga, udumlarga, urf-odatlarga, an’analarga, marosimlarga, ya’ni ped.ga aylantirdi. Bu davrdagi xulqatvor, an’ana, udum, odatlar ma’naviy turmushdagi ayni shu jihatlarni aks ettiradigan bo‘ldi. O‘zbek millati juda uzoq vaqg mobaynida

islom dini ta'siridagi Xalq pedagogikasiga amal qilgan holda yashadi. 19-asrning 2-yarmiga kelib, Rossiya bosqini sababli o'zbek xalqining turmush tarzi, fikrlash yo'sini, tarbiya tamoyillarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Faqat islom dini belgilagan turmush tarzi, akida, an'ana va odatlar bilangina yashash mumkin bo'lmay qoldi. Xalqning ongi, axloqi, fikri, turmushi o'zgarishi bilan uning pedagogikasi ham o'zgarishlarga uchradi. Yangi an'ana va odoblar paydo bo'ldi, ayrim pedagogik qadriyat, axloqiy aqidalar esa yo'qoldi. Xalq pedagogikasidagi yo'qotishlar, ayniqsa, sho'ro davrida keng tus oldi. Xalq pedagogikasi tufayli shiddatli o'zgarishlar girdobida qolgan o'zbek millati o'z qiyofasini saqlab qola bildi. Mustaqillikka erishgach esa o'zbek xalqining fikrlash, yashash, olamni anglash va izoxlash yo'sini yangilandi, xalq ruhiyati, ma'naviy qiyofasi o'zgardi. Bu o'zgarishlar xalqning turmush tarzida paydo bo'layotgan yangi odat, an'ana, xulqatvor, urf va udumlar tarzida namoyon bulmoqda. Mustaqillik davri Xalq pedagogikasida ko'plab islomiy an'analar qayta tiklanib, amaliy tarbiya jarayoniga tatbiq etila boshlandi. Xalq pedagogikasi tarixiy tushuncha sifatida hozirgi kunda ham zamon talablariga moye ravishda boyib bormoqda va jiddiy amaliy tarbiyaviy ahamiyat kasb etmoqda.

Etnopedagogika fani asoschilaridan biri G.N.Volkovning quyidagi ta'rifi xalq pedagogikasi manbalari haqida yorqinroq tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi: "Xalq pedagogikiasi – xalq og'zaki ijodida, urf-odatlarida, marosimlarda, bolalar o'yinlari va o'yinchoqlarida va hokazolarda saqlanib qolgan pedagogik ma'lumotlar va tarbiya tajribasining majmuasidir"<sup>1</sup>.

O'zbek xalq pedagogikasi o'z ta'lim-tarbiya borasidagi tajribalarini quyidagi jadvalda berilgan manbalarda aks ettiradi:

### Xalq pedagogikasi manbalari



Xo'sh Xalq pedagogikasining qaysi manbalaridan biz, tarbiyaviy imkoniyat sifatida foydalanishimiz mumkin?

Xalq tajribasidan joy olgan eng ilg'or pedagogik bilimlar, malaka va ko'nigmalar, zamonaviy ta'lif muassasalari va oila tarbiyaviy tizimida yoshlarni tarbiyalashda xalq maqollari, xalq ertaklari, ibratli hikoya va rivoyatlar orqali tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalarini hal etish imkoniyatlari mavjud. Tarbiyaning asosiy maqsadi esa har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatlari shaxsni shakllantirishdir. Zero, xalq pedagogikasi qadriyatlari ma'naviy yetuk, malakali mutaxassislarni tayyorlash, komil inson tarbiyasi hamda ta'lif-tarbiya samaradorligini oshirib beruvchi muhim manbadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- Vikipediya, ochiq ensiklopediya Qozoqboy Yo'ldoshev  
G.N.Volkov Etnopedagogika.- T. Fan 2000 y  
M.J.Mutalipova Xalq pedagogikasi.-T. Fan va texnologiya, 2015 y.  
Alaviya M. 0 'zbek xalq qo'shiqlari. - T.: «Fan», 209-bet.  
Jabborov I. 0 'zbeklar. - T.: «Sharq», 2008.  
Hoshimov K., Ochilov S. 0 'zbek pedagogikasi antologiyasi. - T.: O'qituvchi, 1995.  
Murodov M. va b. Etnomadaniyat. - T.: «Adolat», 2003.  
Davurova, G. (2020). Pedagogika oliv o'quv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Arxiv Nauchnyx Publikacij JSPI.  
Davurova, G. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ. Arxiv Nauchnyx Publikacij JSPI.  
Davurova, G. (2020). Komil inson masalasining psixologiyada tadqiq etilishi. Arxiv Nauchnyx Publikacij JSPI.  
Rasulova, D. (2020). YOSH OTA-ONALARING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Arxiv Nauchnyx Publikacij JSPI.  
Davurova, G. (2020). O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).  
Xamrayeva, N. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ. Arxiv Nauchnyx Publikacij JSPI.  
Davurova, G. (2020). O'ZLASHTIRISHI QIYIN BO'LGAN KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).  
Qayumov, A. (2020). SYSTEM-TECHNOLOGICAL APPROACH TO SPIRITUAL AND AESTHETIC EDUCATION IN THE STUDY OF PEDAGOGICAL DISCIPLINES. Arxiv Nauchnyx Publikacij JSPI.

- Qayumov, A. (2020). ДУХОВНО-ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Toshnazarova, U. (2021). Мулоқот маданиятининг ривожланиши психологик омиллари. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).
- Toshnazarova, U. (2020). Communicative culture of socio-psychological support of professional development of higher edication students. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Toshnazarova, U. (2020). Социально-психологические аспекты общения и коммуникативной культуры. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Davurova, G. (2021). OILAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).
- Davurova, G. (2021). TALABA-QIZLARDA TAZYIQ VA TAJOVUZGA QARSHI DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ASOSLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).
- Rahmatova, F. (2020). THE WAYS OF UTILIZING PROBLEMATIC STUDY IN ENHANCING THE MATHEMATICAL MINDOF THE UPCOMING PRIMARY EDUCATION TEACHERS. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2021). Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг математик тафаккурини ривожлантиришда интерфаол таълим методларидан фойдаланиш. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).
- Rahmatova, F. (2020). METHODS OF INNOVATION TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). Main Features of Mathematical Subjects at Primary Schools. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IMPROVING MATHEMATICAL THINKING. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). ТАЛАБАЛАРНИНГ МАТЕМАТИК ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ИМКОНИЯТЛАРИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ УМЕНИЙ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКИ ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). Математика фанини ўқитишнинг дидактик таъминоти. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). Математик тафаккурни такомиллаштиришда матнли масалалардан фойдаланишда узлуксизлик тамойилининг аҳамияти. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). СОЗДАНИЕ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ ОБЛАСТИ ТВОРЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Rahmatova, F. (2020). Талабаларда математик тафаккурни шакллантириш омиллари. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-6.

- Rahmatova, F. (2021). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish yunalishi bo'yicha faoliyat. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).
- Rahmatova, F. (2021). O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).
- Rahmatova, F. (2021). The Formation Of Research Competencies Of Future Primary School Teachers. Журнал инновации в начальном образовании, 1(Архив№ 2).
- Rahmatova, F., & Abrorxonova, K. (2021). Educational issues in the works of enlightened intellectuals. Журнал инновации в начальном образовании, 1(Архив№ 2).
- Rahmatova, F. (2020). БЎЛАЖАК БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛАНТИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ. Журнал инновации в начальном образовании.
- Maxamatova, F. (2020). Таълим-тарбия самарадорлигини оширишда ота-она ибрат намунаси. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Maxamatova, F. (2020). Педагогика фанини ў?итиш жараёнида муоммоли ў?итиш технологияларидан фойдаланиш. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Maxamatova, F. (2020). Оилада фарзанд маънавий тарбиясига ру?ий таъсиirlар. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Maxamatova, F. (2020). Sog'lom oilaviy muhitni himoya qilishning qonuniy asoslari. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Maxamatova, F. (2020). Современные тенденции" учитель-ученик" в системе непрерывного образования: проблемы и решения. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Maxamatova, F. (2020). Развитие страхования в инновационной сфере. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Safaraliyevna, M. F. (2021). Pedagogical bases of formation of readiness of students to work. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 528-531.
- Safaraliyevna, M. F. (2021, January). PEDAGOGICAL BASES OF INVOLVEMENT OF STUDENTS IN LABOR EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 290-296).
- Safaraliyevna, M. F. (2021, January). PEDAGOGICAL BASES OF INVOLVEMENT OF STUDENTS IN LABOR EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 290-296).
- Uktamova, U., & Berdiyorova, S. (2020). THE ROLE OF COMMUNICATION IN PEOPLE'S RELATIONSHIPS AND WAYS OF LEARNING TO COMMUNICATE. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Uktamova, U. (2020). KICHIK MAKTAB YOSHIDA QOBILIYATNING PSIXOLOGIK TAVSIFI. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Uktamova, U. (2020). Ўқувчиларга маънавий-ахлоқий тарбия бериш орқали экологик маданиятини шакллантириш. Архив Научных Публикаций JSPI.

- Berdiyorova, S., & Uktamova, U. (2020). РОЛЬ ОБЩЕНИЯ ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ ЛЮДЕЙ И СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ К ОБЩЕНИЮ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- Uktamova, U. (2020). АГРЕССИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ НА РАЗВИТИЕ ВЗГЛЯДОВ ДЕВУШЕК. EurasianUnionScientists, 1(10 (79)), 45-47.
- Uktamova, U. (2020). ОИЛАВИЙ ЗЎРАВОНЛИКНИНГ КЕЛИБ ЧИ?ИШ САБАЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
- Сунатуллаевна УУ (2021 г., январь). ТАЛАБА КИЗЛАРДА ТАЗЫИК ВА ТАДЖОВУЗГА КАРШИ ДУНЁКАРАШНИ ШАКЛАНТИШ. В евразиатских конференциях (Том 1, № 1, стр. 504-508).
- Уктамова, У. (2020). ЁШЛАР ФАОЛИЯТИНИ БУНЁДКОР ФОЯЛАР БИЛАН БАНД ?ИЛИШ МУАММОСИ. Архив Научных Публикаций JSPI .